

**QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA XONLIKLARI BILAN SAVDO ALOQALARI**

Odilov Saidbek Anvarjon o'g'li  
Andijon Davlat Universiteti  
Tarix Fakulteti 3-Bosqich Talabasi

**ANNOTATSIYA:**

Maqolada Qo'qon xonligini XVIII asr boshlaridan XIX asr oxirilarigacha Buxoro va Xiva xonliklari bilan olib borgan o'zaro aloqlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, O'rta Osiyo, Buxoro, Xiva, Samarqand.

**INTRODUCTION:**

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xolikning o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlarning tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muxim omili bo'lib xizmat qilgan. Tashqi savdosida Buxoro xonligi asosiy o'rinda turgan. Buxoro XVIII–XIX asrlarda xam O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy markazlaridan biri edi. Bu davrda Buxoroda O'rta Osiyodagi eng yirik bozor joylashgan bo'lib, unda Eron, Afg'oniston, Hindiston, Qashqar, Rossiya, Qo'qon va Xiva xonliklaridan kelgan savdogarlar o'zaro savdo qilishgan. XIX asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda haftaning dushanba, seshanba, shanba kunlari bozor bo'lgan. Xo'ja Baxovuddin Naqshband mozori yaqinida chorshanba kuni ot bozori bo'lgan.

XIX asr 60-yillarda Qo'qon xonligidan Buxoroga har yil o'rtacha 1000 tuyada ipak jo'natilgan hamda uning miqdori 12 ming put atrofida bo'lgan. Ipakning eng sifatli turi "chilla" ning bir pudi Qo'qon bozorlarida 1871 yil avgust oyiga oid ma'lumotlarga ko'ra 52 tilla ( 197 rub. 60 qop ), Buxoro bozorlarida 1110 tanga (222 rub.) narxlarda baxolangan .

Buxoro xunarmandlari orasida matolarni turli ranglarga bo'yash kasbi ham ravnaq topgan bo'lib, bu yerga qo'shni xonliklardan matolar bo'yatish maqsadida yil davomida ko'plab kelingan. Xususan, XIX asr 20–yillarida O'rta Osiyoda bo'lgan E.K.Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, " ... qo'qonlik savdogarlar Buxoroga bo'yash uchun oq mato keltirganlar " .

Qo'qon xonligidan Buxoro bozoriga yuk tashuvchi va zotli otlar ham olib borilgan. XIX asr 60-yillarida 35 pud yuk tashuvchi va 13-14 pud yukni ko'tara oladigan Qo'qon otlari Buxoro bozorlarida 5 tildan 15 tillogacha sotilgan.

Qo'qonlik savdogarlar odatda Buxorodan barcha karvonsaroyida to'xtaganlar va shu yerning o'zida savdo bilan shug'illanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Qo'qonning Buxoro xonligi bilan savdo aloqalarida Samarqand shahri muhim ahamiyatga ega edi . Samarqand Qo'qon xonligidan pilla, xom ipak, ipak mato, quritilgan meva va boshqalar olib kelingan. XIX asr o'rtalarida Samarqandda pilla bozori mavjud bo'lib, Qo'qon pillasiga Buxoro va Samarqand hunarmandlari orasida talab katta bo'lgan. Samarqand pilla bozori haftada ikki marta- chorshanba va yakshanba kunlari faoliyat ko'rsatib, unda kuniga 700 tillolik oyiga esa 5000 tillolik pilla sotilgan.

Buxorolik savdogarlar uchun ham Qo'qon bozorlari juda daromadli hisoblangan va yil davomida xonlik bozorlarida ularni uchratish mumkin bo'lgan. XIX asr 70-yillari boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon Zakot saroyiga eng ko'p daromad Buxoro xonligidan kelgan sado karvonlaridan tushgan.

XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon muhin tranzit shaharlardan biriga aylangan. Natijada uning xududi orqali olib boriladigan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Buxoro davlatlarining o'zaro savdo aloqalarida qo'qonlik savdogarlar yetakchi o'rinni egallaganlar. Xitoy muarrixlari yozganidek, "... qo'qonliklar savdo ishlariga juda layoqatli edilar".

Xonlikning Xiva bilan savdo aloqalari asosan Buxoro xonligi bozorlari va bu davlat hududidan o'tgan karvon yo'llari orqali olib borilgan. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi hudutlarining kengayib borishi natijasida qozoq dashtlari orqali ikki xonlik chegaralari tutashib ketgan va to'g'ridan-to'g'ri savo aloqari olib boorish imkoniyati paydo bo'ldi. Biroq bu hududdan o'tgan karvon yo'llarining uzoqligi, noqulay sharoiti va savdogarlar hayoti uchun xavfliligi savdo munosabatlarning rivojiga salbiy tasir ko'rsatgan. Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan ham yuqori darajada bo'lmasda, muayyan savdo aloqalarini amalga oshirgan.

Qo'qon-Xiva savosida Oqmasjid qa'lasida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu Qo'qon qa'lasida Xiva chegarasidan 45 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, uning bozorida Xiva savdogarlari Qo'qon savdogarlari bilan oldi-sotdi munosabatlarini amalga oshirganlar. Qo'qon-Xiva savdo aloqari Qo'qon xonligiga qarashli Yangiqo'rg'on, Chimqo'gon va Qo'shqo'rg'on qal'alariorqali ham olib olib borilgan.

Xiva xonligida xam Qo'qon ipagi va gazlamalariga talab katta bo'lgan. Xivalik savdogarlar Buxoro bozorlaridan ipakdan tayyorlangan gazlamalarni ko'plab xarid qilaganlar. Xususan, Xiva bozorlarida Qo'qon ipak matosi-shoyi yuqori baholangan va xivalik savdogarlar tomonidan ko'plab olib ketilgan. Mashhur Qo'qon qog'ozi O'rta Osiyoning turli hududlari kabi Xiva xonligigacha olib borilgan. Xivadan Qo'qon xonligiga oz miqdorda Xiva choponlari, bo'z, po'stin, ot, tuya, ho'kiz terilari, yarim ipak mato, gilam, arg'umoq otlar va Mashxad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan.

XIX asr 60-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan M.Mixaylov ma'lumotlarga ko'ra, Namangan bozorlarida Buxoro sallalari va qo'y terisidan tayyorlangan Xiva telpaklariga talab katta bo'lgan va ular bozorlarda yuqori narxlarda sotilgan. Qo'qon va Xiva xonliklarning savdo aloqalarida turkman arg'umoiq otlar muhim ahamiyat kasb etgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Zoxid Madraximov, Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi – Toshkent “Yangi nashr” 2014
2. Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari.– Toshkent–Namangan,1994
3. Мейендов Е К Путешествие из Оренбурга в Бухару.- Москва, 1975. С.130
4. Бухара// Туркестанский сборник.Том 30 .1870.-С.111
5. Петровский Н. О шелководстве и шелкоматаннии Средней Азии // Туркестанский сборник Том 81 1873 - С.33
6. Адинаров А Г Торговые взаимоотношения.....С.37
7. Zokirjon o'g'li S. J. et al. QO'QONDA XUDOYORXON O'RDASI//YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASSIYALAR (2022): 25-27.